

NOTINCH OILA VA UNDA VOYAGA YETAYOTGAN O'SMIR QIZLARINING RUHIYATIGA TA'SIRI

Umarova Gulbaxor Maxamad qizi
Marg'ilon shahar IIB JXX HPB XQMB katta inspektori

Annotatsiya: Maqola hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarda jamiyatimizni rivojlantirish, bunda erkaklar bilan bir qatorda qiz va ayollarimizning faol siyosiy va ijtimoiy pozitsiyasini ta'minlash, shuningdek, jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilalarni mustahkamlashga qaratilmoqda. Mazkur jarayonda qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga maqsadli tayyorlash, ularning ijtimoiylashuvini natijador qilish masalalari alohida dolzarflik kasb etmoqda. Xususan, oilada farzand tarbiyasining asosiy mas'uliyati onalarning zimmasidadir. Binobarin, jamiyatdagi ma'naviy sog'lomlik bo'lg'usi onalar, jumladan, qizlarning tarbiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Kalit so'zlar: Psixogen va nopsixogen, psixogigiya, o'spirin.

KIRISH

Ma'lumki, jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topadi. Oilaning mustahkamligi va unda ma'naviy-axloqiy jihatlarning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg'ayadi. Jamiyatda namunali oilalar talaygina. Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma'naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan nurli otaxon va onaxonalar ko'z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir. Ammo, afsuski, bu oilalar bilan bir paytda bularga teskari ravishda farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va ijtimoiy salbiy muhitga ega oilalar hamlar mavjud. Bunday oilalarga, "janjalkash oila", "nizoli oila", "notinch oila" kabi tushunchalarning ishlatilishi shular jumlasidan. Notinch oilalar, bu hayot faoliyatida nosog'lom muhit hukm suradigan ijtimoiy mavqega ega bo'lgan oilalardir. Bunday oilalarni kelib chiqishiga oila daromadi past darajadaliigi, yomon psixologik holatlar, oilada madaniyat darajasi pastligi kabi vaziyatlar misol bo'la oladi. Ushbu oilalardagi shaxslar ularga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning moslashish qobiliyatlari past darajada, oilada tarbiyalash jarayonlari qiyinchiliklar bilan o'tadi. Bunday turdagi oila uchun ijtimoiy pedagog tomonidan faol va davomiy yordam kerak bo'ladi. Notinch oilalarda yashovchi er-xotin o'rtasida vujudga keladigan nizolarning kriminologik va psixologik xususiyatlari, oqibatlarini hamda o'ziga xos jihatlari bevosita boshqa nizolardan tubdan farq qiladi. Xotin-qizlarni oila, mahalla va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy muhitini va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning tadbirkorlik g'oyalarini ro'yobgacha chiqarish, bandligini ta'minlash, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni bajarish, ayollarning muammolarini aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ko'mak ko'rsatish kabi muhim

vazifalar mahalladagi faolimiz faoliyatining asosini tashkil etadi. Avvalgidek faqat notinch oilalarni yarashtirish, ularga maslahat berish, to'y-ma'rakalarni tartibga solishdangina iborat emas faolning vazifasi. U endi mahallalardagi barcha oilalar bilan, turli yoshdagi xotin-qizlar bilan ishlaydi, ularning hayotini o'rganadi, muammolarni o'zi aniqlab, hal etish choralarini ko'radi.

Yurtimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularning qonuniy huquq hamda manfaatlarini ta'minlash, salomatliklarini mustahkamlash, intilish va tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ayol va qizlarga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, har bir nozik hilqat vakiliga o'z iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, oilada va jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun ko'maklashish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy ishlar yuksak olib borilmoqda va o'z samarasini bermoqda.

Bugungi texnika asri yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitetni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berish lozimligini ko'rsatmoqda.

Yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega jamiyat, davlat va oilasi oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri angelaydigan, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarga ega, irodasi baquvvat, iymoni butun hamda vijdoni pok shaxslarni tayyorlashdan iboratdir.

Qizlarning odob-axloqiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar:

- Oila;
- Ta'lim muassasi;
- Jamoa (muhit).

Bugungi kunda turmushga chiqmagan qizlar oilaviy hayotning ma'naviy, axloqiy, iqtisodiy xususiyatlari, oilani rivojlantirish, oilada tinchlik va totuvlikni saqlash, oilada farzand tarbiyasini amalga oshirish ishlariga tayyor bo'lishlari zarurligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Shuningdek, bo'lajak kelin va kuyovlarni baxtiyor oila, oilaviy hayot, turmush, ro'zg'or tutish, oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarda "muvaffaqiyat kaliti"ga erishish mahoratiga o'rgatish, jamiyatimizda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qator oilaviy muammolar, manfaatlar to'qnashuvi, kelishmovchiliklar, jumladan, ajrimlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Abu Ali ibn Sino, agar har qanday narsa va hodisa ichki yoki tashqi sabablar bilan harakatga keladigan bo'lsa, demak, insonning yashashi va harakatida ham birorta sabab bo'lishi kerak, bunday sabablardan biri ruhiy quvvatdir deb ko'rsatadi.

Qizlarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va hokazolarni o'rgatishda oila birichi navbatdagi tayanch vazifasini o'tovchi maskandir.

Turmushga chiqmagan qizlarni oilaviy hayotga, turmushga, kelinlikka, jamiyatga tayyorlash masalasiga xalqimiz qadim-qadimdan muhim masala sifatida qarab kelgan.

Turmushga chiqmagan qizlar oilaviy hayotning ma'naviy, axloqiy, iqtisodiy xususiyatlari, oilani rivojlantirish, oilada tinchlik va totuvlikni saqlash, oilada farzand tarbiyasini amalga oshirish ishlariga tayyor bo'lishlari zarur. Oilada qiz bolaga e'tibor muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, qiz bola bo'lajak ona, yor, opa va singildir. Oilada tinchlik-totuvlik, saramjon-sarishtalik, ozodalik, farzandlar tarbiyasi, hattoki, sog'lom muhit ham xotin-qizlar, demakki, buvijonlarimiz, onalarimiz, singillarimiz, kelinlarimiz zimmasiga tushadi. Har bir ota-ona o'z bolasiga sog'lom tarbiya berib voyaga yetkazsa, farzandning mustaqil hayotga toza ruh, olam-olam orzu-intilishlari bilan qadam qo'yayotganini ko'rsa, uning hayoti ma'no kasb eta boshlaydi. Farzandlarni to'g'ri tarbiyalash, ayniqsa jismoniy, ma'naviy fazilatlarini ularda tarbiya qilish doimo ota-onaning asosiy maqsadi bo'lib kelgan.

Oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari nafaqat qizlarning balki farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'spirinlarga oila qurish haqida tushuncha berishda baxtli, tinch-totuv yashash, bir-biriga ishonch, sadoqat bo'lishi kerakligini uqtirish bilan birga, ularni oilaviy turmushda yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan ham ogohlantirish kerak, albatta. Ularga oilada bo'lib turadigan janjallarda ohirini o'ylab ish tutish zarurligini uqtirish lozim.

Oila – ijtimoiy zarurat! Ma'lumki, tabiatdagi butun mavjudot, tirik organizmlar borki, barchasining juftlikda yashashi hayotiy qonuniyatdir. Shunday ekan, insoniyat tabiat sarvari sifatida kishi, shaxs tariqasida shakllanib chiqishiga qadar ham shunday tabiiy zaruratga ehtiyoj sezgan.

Yoshlarni turmush qurishga muvaffaqiyatli tayyorlashni ko'zlab ish tutishi uchun o'spirin yigit va qizlarning jinsiy tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, oilaviy turmushning quvonchlari va tashvishlariga doir muayyan darajada ma'lumot berish, ularga bardoshli va matonatli bo'lish hamda qiyinchiliklarni mardonavor yengish yo'llarini tushuntirish maqsadga muvofiq.

Ibn Sino "Eng yuksak sevgi bu insoniy sevgi bo'lib, bunday sevgi kishini saxovatli qiladi. Uni oqko'ngil va jozibali kishiga aylantiradi", - deb ta'kidlaydi. Mutafakkirning talqin etishicha, sevgi inson zimmasiga juda katta axloqiy va huquqiy ma'suliyat yuklaydi. U inson baxtining negizi deganda oshiqlikni emas, balki oshiq-ma'shuqlikni tushunadi. Oshiq-ma'shuqlik bilan turmush qurish oilani mustahkamlashning asosi sifatida ta'kidlanadi.

Nikohdan o'tishga qadar yetarli fursat o'tishi bo'lajak er-xotinlar bir-birlarini xarakter va odatlarini yaxshiroq bilib olishlariga zamin yaratadi. Oila qurishga jiddiy munosabatda bo'lmaslik ko'plab ko'ngilsizliklarning sababi hisoblanadi. Nikohdan o'tishga qadar shaxslar o'zlari tanlagan kishining irsiyatini bilishlari lozim. Afsuski, shunday kasalliklar borki, ular nasldan naslga o'tadi. Qarindosh-urug'dan qiz olish yoki qiz berish odati qat'iy qoralanishi va undan butunlay voz kechish kerak. Chunki ayrim ota-onalar shunday nikohlarga rozilik berib, natijada nogiron va kasalmand farzand dunyoga kelishiga sababchi bo'ladilar.

Psixogigiyenaning eng muhim vazifalaridan biri har tomonlama to'la-to'kis jinsiy hayotni qaror toptirishda yordam berishdan iborat. Bu sohadagi buzilishlar ko'pincha ancha-muncha ruhiy jarohatlar va asab buzilishlariga olib keladi. Noto'g'ri olib borilgan jinsiy hayot ko'pincha kishini og'ir iztirobga solib, u ko'pgina kelishmovchiliklarning

sababchisi hisoblanadi. Ayniqsa, voyaga yetmagan qizlarning erta jinsiy hayot boshlashga intiloshi deviant xulq-atvorni shakllanganidan dalolat beradi. Buning natijasida kelib chiqadigan turli ko'ngilsiz holatlar salbiy oqibatlarga olib keladi. Ushbu axloq normalaridan chetga chiqishlarda o'z vaqtida ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Luiza Xeyning "Hammasi yaxshi bo'ladi" asari.
2. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari.
3. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. *Universum: технические науки*, (8-1 (77)), 27-29.
4. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 990-993.
5. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. *Scientific Impulse*, 1(2), 535-537